

TUXTANAZAROV Dilmurod Solijonovich

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya

texnologiyalari kafedrası PhD

TA'LIMDA MULTIMEDIYALI KONTENTLARNI YARATISH VA TAHLIL QILISH

СОЗДАНИЕ И АНАЛИЗ МУЛЬТИМЕДИЙНОГО КОНТЕНТА В ОБРАЗОВАНИИ

CREATION AND ANALYSIS OF MULTIMEDIA CONTENT IN EDUCATION

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim tizimi uchun video kontentlarni powtoonida yaratish jarayoni keltirilgan. Powtoon tizimidan foydalanish statistikasi va ko'rsatkichlari bayon qilingan. Tizimda video kontent yaratish yo'nalishlari bo'yicha ko'rsatmalar keltirilgan. Kontent yaratish turlari, tizim imkoniyatlari va video mahsulotlarni yaratish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Kontent, taqdimot, ilova, tizim, animatsiya, foydalanuvchi, matn, taxrirlash, infografika.

Аннотация. В этой статье описан процесс создания видео контентов в powtoon для образовательной системы. Описаны статистика и показатели использования системы Powtoon. Система содержит инструкции по созданию видеоконтента. Виды создания контента, возможности системы и рекомендации по созданию видеопроизведения.

Ключевые слова: Контент, презентация, приложение, система, анимация, пользователь, текст, редактирование, создание, инфографика.

Abstract. This article describes the process of creating video content in powtoon for the educational system. The statistics and indicators of the use of the Powtoon system are described. The system contains instructions on how to create video content. Types of content creation, system capabilities and recommendations for creating video products.

Keywords: Content, presentation, application, system, animation, user, text, edit, create, infographic.

KIRISH

Bilamiz talabalarga murakkab tushunchalarni o'qitish va o'rgatish jarayoni har doim murakkab kechadi. Darslarni nima o'zgartirishi, ularni yanada rang-barang va samarali qilishi mumkin? Albatta zamonaviy multimedia texnologiyalari. Buning uchun ta'lim sohasida turli platformalar va xizmatlar ko'rinishidagi ko'plab vositalardan foydalanish mumkin. Ulardan biri PowToon tizimidir.

PowToon - bu animatsion taqdimotlar va animatsion o'quv videolarini yaratish imkonini beruvchi onlayn platforma. Uning nomi PowerPoint dasturi nomi va Cartoon so'zining birikmasidan xosil bo'lgan.

Powtoon Britaniyaning animatsion taqdimotlar va video kontentlarni yaratish uchun bulutli texnologiyalarga asoslangan xizmat ko'rsatish dasturiy ta'minotidir. "Powtoon" nomi "PowerPoint" va "Cartoon" so'zlarining birlashmasidan xosil bo'lgan[8].

Powtoon 2012-yil yanvar oyida tashkil qilindi. Kompaniya 2012-yil avgust oyida beta-versiyasini chiqardi va shu vaqtdan beri obunachilar soni tez o'sib bormoqda. 2012 yil dekabr oyida Powtoon Los-Anjelesda joylashgan "Startup Minds venchur capital" firmasi 600 000 dollar investitsiya kiritgan.


Powtoon - bu veb texnologiyalarga asoslangan animatsiya dasturi bo'lib, foydalanuvchilarga oldindan yaratilgan ob'yektlar, import qilingan tasvirlar, taqdim etilgan musiqa va foydalanuvchi tomonidan yaratilgan audiolarni boshqarish tizimidir. Powtoon tizimida yaratilgan kontentlarni YouTube'ga eksport qilish yoki video fayl sifatida yuklab olish mumkin.

Hozirgi kunda (2022 y.) Powtoonni 149 dan ortiq davlatlarda 770 mingdan ortiq kompaniyalarning 30 millondan ortiq foydalanuvchisi ishlatib kelmoqda va 85 milliondan ortiq kontentlar yaratilgan. Powtoon foydalanuvchi kompaniyalarning katta qismi AQSHga tegishli va sohalar bo'yicha oliy ta'lim mutloq yetakchi hisoblanadi (1-rasm) [9].



1-rasm. Powtoon tizimidan foydalanish ko'rsatkichlari

Powtoon mijozlariga ishlatish sohalari bo'yicha nazar tashlasak, oliy ta'lim (15%), kompyuter dasturlari (12%), ta'limda (8%) va axborot texnologiyalari va xizmatlari (6%) eng katta segmentlar ekanligini ko'rishimiz mumkin (2-rasm).




2-rasm. Powtoon tizimini ishlatish sohalari bo'yicha.

Powtoon tizimidan foydalanadigan eng yaxshi mamlakatlar: 52 % AQSH, 9 % Buyuk Britaniyada, 7 % Kanadada va 6 % Hindistonda.

ASOSIY QISIM

Tizimda yangi kontent yaratish uchun "create" tugmasi tanlanadi yoki to'g'ridan-to'g'ri **TEMPLATES** (Shablonlar) orqali ham yaratish mumkin.



3-rasm. Powtoon tizimi interfeysi.

Powtoon tizimida kontentni yaratishning quyidagi yo'nalishlari mavjud (3-rasm):

- **Animated Explainer** (Animatsion tushuntiruvchi);
- **Whiteboard Video** (Dorskali video);
- **Presentattion** (Taqdimot);
- **Marketing Video** (Marketing video);
- **Branded Character** (Brendlar uchun);
- **Screen & Cam Recording** (Ekran va kameraga yozib olish);
- **Infographics** (Infografikalar);

– **Video From PowerPoint** (PowerPointdan video)[1:222].

Dastlab yuqoridagi bo'limlardan biri tanlanadi va ular ichidan tayo'or shablon tanlaymiz. Shablon tanlangandan so'ng "**Edit in Studio**" tugmasini tanlab va ushbu shablon asosida powtoon kontentini yaratish boshlanadi.

Powtoon video roligi powerpoint singari bir necha slaydlardan tashkil topadi. Ushbu slaydlarda quyidagi ishlarni amalga oshirish mumkin:

- tayyor sahifa shablonlarini o'rnatish;
- orqa fon;
- matnlar joylash;
- xarakatli rasmlarni joylash
- rasm va videolar joylash;
- turli obektlar(matn, rasm, video,)ni sahifada ko'rinishni boshlash vaqt momentini ko'rsatish;
- obektlarni sahifadan chiqib ketish vaqt momentini ko'rsatish;
- sahifani namoyish bo'lish vaqtini o'zgartirish)[2:7].

Powtoon video mahsulotlar yaratish uchun ishlatiladiga bo'limlar va ularning vazifalari(1-jadval):

1- jadval.

Powtoon tizimining imkoniyatlar va ularning vazifalari

Icon	Nomi	Vazifasi
	Scenes (Sahnalar)	Tanlangan sahifaga tayyor shablon slaydlarni o'rnatish imkonini beradi.
	Background (orqa fon)	Sahifani orqa fonini o'rnatish yoki o'zgartirish
	Text	Sahifaga matn yozish
	Characters (Qaxramonlar)	Turli qaxramonlarni animatsion rasmlarini joylashtirish. Qaxramonlarni xarakat turlarini o'zgartirish
	Props	Turli narsa (jonli va jonsiz) larni maketlarini joylash
	Shapes (shakllar)	Shakllarni sahifaga qo'yish
	Images (rasmlar)	Rasmlar o'rnatish
	Videos	Videolar o'rnatish
	Audio	Musiqalar o'rnatish
	spacials	Maxsus tayyor shablonlarda foydalanish

XULOSA

Powtoonda video kontentlar yaratishda quyidagilarni hisobga oling:

Motivatsiya o'rganishning muhim qismidir va butun dars jarayonida saqlanishi kerak. O'quvchilar oldiga qo'yilgan aniq belgilangan maqsad katta ahamiyatga ega. Agar qo'yilgan topshiriqlar darajasi talabaning tayyorgarlik darajasiga mos kelmasa, motivatsiya tezda pasayadi [2:5].

O'qitish kontentlarini taqdim etish strategiyasi hal qilinishi kerak bo'lgan o'quv vazifalariga qarab belgilanadi. Video kontentlarda albatta dadisplay ekranida ramkalar, shakllar va videolar dizayni namoyish bo'lishi kerak[9].

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

1. Adnyani L.D.S., Mahayanti N. W. S., & Suprianti G. A. PowToonBased Video Media for Teaching English for Young Learners: An Example of Design and Development Research. 394 (January 2012), p. 221–226. <https://doi.org/10.2991/assehr.k.200115.036>
2. Anita A. S., & Karden A. The Effect of Using Powtoon Toward Students ' Motivation in Writing. 2021. 6(1), p. 1–13.
3. Dadamukhamedov A.I. (2019). Development of national network and corporate networks (in the case of Tas-IX network). International Journal of Human Computing Studies, 1(1), p. 1-5. <https://doi.org/10.31149/ijhcs.v1i1.347>
4. Patulloyev N., Dadamuxamedov A.I., Artikova M. (2020). Turizm rivojlanishida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarning o'rni. «Актуальные научные исследования в современном мире», 2(1), (58), 15-24 b.
5. Tuxtanazarov D.S., Buvashev S.O., Kibermakonda xavfsizlikni ta'minlashning zamonaviy usul va algoritmlari // Islom tafakkuri (2-son) 2021, 157-160 b.
6. Tuxtanazarov D.S., Maxkamov A.A., Dadamuhamedov A.I., Axborotlashgan makonda yoshlar ongiga salbiy axborotlarning ta'siri // Islom tafakkuri (2-son) 2022, 244-247 b.
7. Tuxtanazarov D.S., Bekchanova S.A., Kurganbayev J.I., Zamonaviy tizimlaryordamida internetda yosh avlodni salbiy axborotlardan himoylash va ularni nazorat qilish // Islom tafakkuri (Maxsus son) 2021, 131-134 b.
8. Create Jaw-Dropping Videos and Presentations // <https://www.powtoon.com/>.
9. How to Make Videos on Powtoon // <https://www.youtube.com/>.
10. Create Training Videos with Powtoon // <https://www.coursera.org/projects /create-training-videos-powtoon>.